

**KONFERENSIYALAR.COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**AVGUST, 2025**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiylar.com>



**KONFERENSIYALAR .COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**TOSHKENT-2025**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

#### **Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat*

*KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI*

*MUAMMOLARI..... 6-9*

*Iskandarov Orifxon*

*TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI ..... 10-12*

*Odinayev Mirjalol*

*"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA*

*QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA*

*SOLISHDA INNOVATSION YECHIM ..... 13-18*

### QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

*Karimov Nurbek*

*TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON*

*TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI ..... 19-22*

### TARIX FANLARI

*Bobojonova Zuxra*

*TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI ..... 23-25*

*Xalilov Baxodir*

*ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY*

*VILOYATI MISOLIDA ..... 26-31*

*Xoliqova Ra'noxon*

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI, GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI" ..... 32-34*

*Xasanova Nargiza*

*YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB*

*AHAMİYATI ..... 35-38*

### IQTISODIYOT FANLARI

*Salomov Temurbek*

*THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:*

*A CASE STUDY OF UZBEKISTAN ..... 39-43*

*Raxmanov Ulugbek*

*TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ*

*TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH ..... 44-45*

*Toshtemirov To'lqin*

*KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI ..... 46-49*

*Mansurova Sayyora*

*INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA*

*ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI ..... 50-53*

*Rajabov Alibek*

*INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH ..... 54-57*

*Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda*

*EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM*

*GLOBAL EXPERIENCES ..... 58-60*

## **FALSAFA FANLARI**

*Abdullayev Sodiqjon*

*MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI*..... 61-66

*Gafurova Munojat*

*O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI*..... 67-70

*Davronov Bahodir*

*SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI*..... 71-76

*Latipov Sardor*

*KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI* ..... 77-81

## **FILOLOGIYA FANLARI**

*Xoliyorova To'lg'anoy*

*O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI*..... 82-83

*Ro'ziyev Temur*

*ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI* ..... 84-92

*Gulmuradova Sobira*

*"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI*..... 93-95

*Qosimova Malika*

*SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA* ..... 96-99

*Bahromjonova Shahnoza*

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:  
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* ..... 100-102

*Ayimbetova Damekhan*

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI  
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* ..... 104-107

## **YURIDIK FANLARI**

*Komilov Avazbek*

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,  
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

*Shamsitdinova Manzura*

*TEACHING LISTENING COMPREHENSION* ..... 111-112

*Xadiyev Azizbek*

*"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI*..... 113-116

*Укташов Комрон*

*РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН*..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
<b>PEDAGOGIKA FANLARI</b>	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI .....</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
<b>TIBBIYOT FANLARI</b>	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
<b>PSIXOLOGIYA FANLARI</b>	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH .....</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

## TARIX FANLARI

### TEMURIY MALIKALAR LARNING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI

#### **Bobojonova Zuxra Farxod qizi**

Abu Rayhon Berunuy nomidagi Urganch davlat universiteti tuzilmasidagi qatag'on qurbanlari xotirasi muzeyi kata ilmiy hodimi

Tel: +998 99 9661494

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada temuriy malikalar xususan Bibixonim va Xonzoda begin va ularning hayoti, zehni,davlatda tutgan o'rni haqida so'z boradi. Suningdek zamondosh va keying davr tarixchilarining asarlaridan iqtiboslar keltiriladi.Bunda tarixchilar: Sharafiddin Ali Yazdiy, Turg'un Fayziyev, Vladimr Bartold, ganzales de Klavixo asarlaridan foydalанилди.

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, shaxzodalar,Kon'e, Bibixonim

### THE ROLE OF TIMURID PRINCESSES IN THE LIFE OF RULERS

#### **Bobojonova Zuxra Farxod qizi**

Senior Research Fellow at the Museum of the Memory of Repression Victims, a structural unit of Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

**Annotation.** This article tells about the Timurid queens, in particular about Bibikhanim and Khanzoda Begim, and their lives, minds, and their role in the state. The works of modern and later historians are also cited. It uses the works of historians Sharafiddin Ali Yazdi, Turgun Fayziev, Vladimir Bartold, Ganzalez de Clavixo.

**Key words:** Amir Timur,princes, Konye, Bibikhanim.

**Kirish.** Ko'hna tarixning zarvaraqlarida ko'plab tarixdan iz qoldirgan shaxslar haqida gap ketganda e'tibor davlat tuzgan hukmdorlarga, xalqni o'ziga ergashtira olgan siyosatdonlarga yoki katta katta sarhadlarni mahvf etgan sarkardalarga ko'proq qaratiladi. Tarixiy shaxslarga bunday munosabat ko'proq g'arb olamidagi tarixchilar asarlarida uchratamiz,ammo sharq dunyosi xususan ,turkey olamda dunyo tan olgan hukmdorlar yonida davlat boshqaruvida hukmdordan kam bo'lmanan mavqeyga ega bo'lgan hamda sultonlarga asrlar davomida qimmatli maslahatlari bilan yordam berib kelgan ayollar haqida ham ko'plab asosli ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Temuriy malikalar haqida gap ketar ekan, Sohibqiron Amir Temurning zavjası Bibihonim nomi bilan uluig'langan Saroy Mulkxonim niaynan kuchli hukmdor ortida turib davlatni boshqarishda tirkak bo'lgan malikalardan deb ayta olamiz.

**METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI.** Amir Temur va Saroy Mulkxonim o'rtasidagi nikoh Temurning Balx hokimi Amir Husaynustidan qilgan g'alabasidan so'ng amalga oshadi. Bu voqeа haqida Sharafiddin Ali Yazdiy shunday malumot beradi : "Hazrat Husaynbekning xotunlaridin Saroy Mulk xonimni, Qazon sultonxonning qizi erdi va Ulus og'okim, Bayon Sulduzning qizi erdi, va Islom og'okim, Xizr Yasuriyning qizi erdi, va Tag'ay Turkon xotun — bularni xoss haramig'a yibardi;" [5;B.67]

Husaynning qatlidan so'ng Saroy Mulk xonimning Temur haramiga olishi haqida yana bir tarixchi shunday keltiradi:" 1370-yilda sohibqiron Amir Temur jangda amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movarounnahrukmonligini o'z qo'lliga oladi. Tabiiyki, amir Husaynning bir necha xotinlari bo'lib, haramningulug' bekasi — Tarmashirinxonning qizi

SuyunchQutlug' Og'o edi. Sohibqiron Amir Temur maqtulning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi — Saroy Mulk xonimni, Bayon Sulduzning qizi — UlusOg'onni, Xizr Yasuriyning qizi — Islom Og'oni hamda Tag'oy Turkon Xotunni tanlab olib, idda muddati uch oy o'tgach, o'z nikohiga kiritadi.[4;B.6]. Garchi Xusayn haramidagi 4 ta ayolni o'z haramiga olgan bo'lsa ham ular orasida Saroy Mulkxonim "katta xoni" ya'ni Bibixonim deya atalgan. Buning sababi Saroy Mulkxonim Chingiziy xonlardan bo'lган Qozog'onning nabirasi ekanligidadir. Shu o'rinda bu nikoh Amir Temurga "xonning kuyovi" ko'ragon unvonini beradi. Amir Temurning mahalliy hokimlar avlodidan ekanliginio hisobga olsak bu unvon Temurga juda qo'l kelgan.

Bu nikohdan farzand dunyoga kelmagan bo'lsa ham Bibixonim shahzodalarning tarbiyasida faol qatnashgan. Bu hodisani Temurbning shahzodalar tarbiyasini o'zining onalariga emas balki aynan Saroy Mulk xonimga ishonganini har xil izohlash mumkin jumladan, shazodalar o'z onalari oldida erkalik qilib dangasalik qilmasligi vajidan bo'lsa, boshqa sababi Bibihonimning aql zakovati zehning o'tkirligi kelajakda shahzodalartning kuchli shaxslar qilib tarbiyalashda asosiy rol o'ynashini hisobga olgan bo'lishi mumkin. Qudratli davlat asoschisi sifatida Amir Temur ko'plab mamlakatlardan jumladan Yevropa davlatlaridan ham elchilar qabul qilgan. Shunday elchilardan biri Rui Gonzales de Klavixo bo'lib u o'zining Samarqanda bolgan 4 yillik sayohatini o'z kundaligida yozib qoldiradi. Uning malumotlarida Temurning elchilarni kutib olish marosimi tasvirlanib uning rafiqalari va oilasi va albatta Bibixonimga alohida e'tibor beriladi. Masalan Klavixo o'zining estaliklarida Saroy Mulkxonimni shunday tariflaydi: "Barcha mehmonlar O'rinaliga o,,tirib sarajomlik o'rnatilgandan keyin to'uda podshoh huzurida bo'lishi lozim bo'lган katta xotini Kan'o ( Saroymulkxonim) ko'shk yonidagi saropardalarning biridan chiqib keldi. Xonim mana bunday kiyingan edi: Egnida zar bilan tikilgan etagi yergacha sudralib turgan uzun va keng yengsiz qizil shoyi ko'ylak belidan toraytirilgan, etagiga qarab kengayib boradi. Ko'ylak etagini o'n beshga yaqin ayol ko'tarib borardi. Xonimning yuziga oftobdan saqlanish uchun shunchalik ko'p miqdordagi oq upa surilgan ediki, chehrasi bamisolai oq qog'ozga o'xshardi. Qishda va yozda safarga chiqqan barcha aslzoda ayollar yuzlariga shunaqa yog'li upa surtadilar. Xonimning yuziga yupqa oq mato tashlangan, boshida faqat jangda kiyiladigan dubulg'aga o'xshash baland, qizil tusdagi bosh kiyimi. Uning bir uchi xonimning yelkasiga tushib turibdi. O'sha qizil dubilg'aga juda ko'p yirik, dona-dona marvaridlar, yoqut firuza, boshqa xilma-xil qimmatbaho toshlar qadalgan. Bosh kiyimining haligi yelkaga tushib turgan qismi zar bilan tikilgan, unga qimmatbaho toshlar va yirik marvaridlar bilan bezatilgan chiroylı oltin bargak qadalgan. Xonimning tim qora sochlari yelkasiga tushib turardi"[3;C.126] Shu o'rinda Saroy Mulkxonimga nisbatan ishlatalgan Ka'no atamasini rus tarixchisi Bartold ham o'zining Ulug'bek va uning davri asarida ham qo'llab unga shunday ta'rif beradi;"Ka'no – "Bibixonim", Qozog'onning qizi, Amir Husaynning sobiq rafiqasi. Uni Saroy Mulkxonim deb ataganlar. Xonning avlodni bo'lganidan Temurning katta zavjasini hisoblangan." [1;C.47]

**TADQIQOT NATIJALARI.** Bibixonim bilan zamondosh bo'lib, uni o'z ko'zi bilan ko'rgan elchingin ma'lumotlari ishonarlidir. Agar Elchilarni kutib olishda Saroymulkxonimning ham qatnashgani , davlat boshqaruvidagi sezilarli ta'sirini ham ko'rsatadi. Jumladan temuriy malikalar to'g'risida nafaqat sharqda balki xorijiy davlatlar tarixnavislari ham qalam tebratganlar. Bularga Kristofer Marlounning (1564-1593) "Buyuk Temur" dramasi, Eduard Gibbon (1737-1794), avstriyalik Hammer-Purgshtal (1774-1856), nemis Fridrix Shlosser

(1176-1861), Maks Myuller (1823-1900) asarlaridir.[2;B.765] Bu asarlardan olinish mumkin bo'lgan xulosa shundan iboratki, g'arb olimlari Temurni asosan mo'g'ullar avlodiga borib taqashgan, ammo, Temur turkeylardan edi. Bu fikrning asosi sifatida uning davlatni xon unvonida emas balki, amir unvoni bilan boshqarganligida ko'rishimiz mumkin. Agar haqiqatan ham Amir Temur chingiziylar avlodidan bo'lganida qo'g'irchoq hukmdor sifatida Suyurg'at mishni xon qilib ko'tarib, amalda o'zi boshqarmagan bo'lardi. Mana shu yerda Amir Temur tomonidan nikohga olingan rafiqalari Turmush Og'a va Saroymulkxonimlar Temurdan farqli ravishda mahalliy hukmdorlarning qizlari emas, chingiziy xonlar avlodidan edi. Bu shuni ko'rsatadiki, o'zi xon avlodidan bo'limgani tufayli xon avlodlari hisoblangan ayollarga uylanganligi Amuir Temur tomonidan uzoqni o'ylab qilingan qaror edi.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Бартольд В.В. Улугбек и его время, Петроградью 1918.
2. Hakimova Muyassar Rashidovna. Temuriy malikalarning hayoti va faoliyatiga tarixiy nazar// International Journal of Education, Social Science & Humanities. Finland Academic Research Science Publishers.-2023. №11 son.
3. Клавихо, Руи де Гонсалес.Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403—1406). Москва: Наука.1990
4. Turg'un Fayziev. Temuriy malikalar. Toshkent.: O'zbekiston, 2012
5. Шарафуддин Али.Зафарнома. Тошкент: Шарқ, 1997

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR  
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 7-avgust

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Science problems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.